



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

LISONIY VA NUTQIY DARAJALANISH: UMUMIYLIK VA TAFOVUT

Nasirdinova Oydinniso

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, doktorant

Annotatsiya

Daraja va darajalanish keng qamrovli, butun borliq qonuniyatlarida voqelanuvchi hodisa sifatida miqdor va sifat dialektikasining tayanch omilidir. Turli fan tarmoqlarida ayni tushunchalar muayyan doiraga ixtisoslashib, yangi ma'no qirralarini namoyon etadi. Tilshunoslikda hozirgacha lisoniy darajalanish doirasida o'rganilgan bu hodisani real nutqda ham voqelanishi va nutqiy darajalanishning yuzaga kelishining asoslari mavjud.

Kalit so'zlar: daraja, darajalanish, miqdor, sifat, lisoniy darajalanish, nutqiy darajalanish

ЯЗЫКОВАЯ И РЕЧЕВАЯ ГРАДАЦИЯ: СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ

Насирдинова Ойдиннисо

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы, докторант

Аннотация

Категория степени и градуонимия, являясь широкомасштабными явлениями, проявляющимися в закономерностях бытия, выступают в качестве фундаментальных факторов диалектики количества и качества. В различных отраслях науки данные понятия специализируются в определенных рамках, раскрывая новые семантические грани. В лингвистике данное явление, до настоящего времени изучавшееся в рамках языковой градации, имеет под собой все основания для реализации в реальной речи, что обуславливает возникновение речевой градации.

Ключевые слова: степень, градуонимия, количество, качество, языковая градация, речевая градация.

LINGUISTIC AND SPEECH GRADATION: SIMILARITIES AND DIFFERENCES

Nasirdinova Oydinniso

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Doctoral student

Abstract

Degree and graduality, as wide-ranging phenomena manifesting in the laws of existence, serve as pivotal factors in the dialectics of quantity and quality. In various fields of science, these concepts specialize within specific domains, revealing new facets of meaning. In linguistics, this phenomenon, which has been studied within the framework of linguistic graduality thus far, also manifests in actual speech, providing a substantive basis for the emergence of speech graduality.

Keywords: degree, graduality (graduonymy), quantity, quality, linguistic graduality, speech graduality.

Borliqda daraja va darajalanish hodisasi turlicha namoyon bo'ladi va, asosan, lingvistik tadqiqotlarda mohiyatni anglash so'zning ma'nosi va unga berilgan izohni tushunishdan boshlanadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da daraja so'zi shunday izohlanadi: "Daraja (a. – bosqich; martaba, unvon; zina) 1. Ish-harakat, xususiyat yoki holatning me'yor, chegarasini anglatadi; ko'pincha aniqlovchilar bilan ishlatiladi. 2. Tadrijiy yoki nisbiy taraqqiyot, rivojlanish pog'onasi; saviya, yuksaklik darajasi" [5; 763-b.] kabi 12 ta ma'no ko'lami ifodalangan. Lug'atda aynan "darajalanish" so'zining muqobil grammatik varianti sifatida "darajalamoq" so'zi "darajalarga bo'lmoq, darajalarga ajratmoq" [5; 764-b.] tarzida berilgan.

Akademik A. Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da daraja so'ziga shu doirada qo'llaniluvchi ikkita lingvistik termin sifatida sharh beriladi: "DARAJA KATEGORIYASI. 1. Belgining bir-biriga qiyosan darajasini ko'rsatadigan grammatik kategoriya. Asosan, sifat turkumiga, qisman ravish turkumiga xos. Bu grammatik kategoriyaning uch turi bor: 1) bosh daraja (q.); 2) ozaytirma daraja (q.); 3) orttirma daraja (q.): go'zal – go'zalroq – juda go'zal kabi. 2. q. Nisbat kategoriyasi; DARAJALI OPPOZITSIYA. Qarama-qarshi qo'yiluvchilarning har birida bor belgining turli darajada bo'lishi asosidagi zidlanish. Mas., chiroyli – suluv – barno – go'zal" [3; 33-b.] kabi birikmali terminlarning aniqlovchisi sifatida qayd etilib, narsa yoki harakat-holatning sifat belgisini o'lchovchi ko'rsatkich

mazmunini ifoda etadi.

Ayni soʻzlar va ularning mohiyatini chuqur tahlil qilish uchun boshqa fan tarmoqlari – falsafa, matematika va mantiq taʼlimotida voqelanishi hamda qanday semantik koʻlamda zohirlanishini tekshirish maqsadga muvofiq. Jumladan, “Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi”da “DARAJA 1) matematikada – bir-biriga teng bir necha son (yoki ifoda)ning koʻpaytmasi. Analitik funksiyalar nazariyasida asosi va koʻrsatkichi kompleks sonlardan iborat boʻlgan daraja qaraladi (yana q. Muavr formulasi). 2) termometr, barometr va b. asboblarning shkalasidagi boʻlinmalar; t-ra, burchak oʻlchovlari (yana q. Gradus)” [6; 82-b.] kabi maʼnolar bilan sof matematik talqinda namoyon boʻlib, miqdoriy tushuncha sifatida izohlanadi. Falsafiy-qomusiy lugʻatda daraja terminining izohi “Daraja – narsa va hodisalarning qanday bosqichda uyushganligi va rivojlanganligining koʻrsatkichi. Mas., materiyaning tuzilishi D.lariga anorganik D. (jonsiz tabiat), organik D. va ijtimoiy D. (jamiyat)lar kiradi” [2; 102-b.] mazmunidagi borliqning rivojlanish dinamikasini aniqlovchi falsafiy tushuncha sifatida talqin qilinadi.

Daraja tushunchasi mantiq ilmiga oid miqdor va sifat oʻzgarishlarining oʻzaro bir-biriga oʻtish qonuniyatida asosiy mexanizm hisoblanadi. Miqdor va sifatning oʻzaro bogʻliqligini birinchi boʻlib tizimli yoritgan Gegelning borliq haqidagi “Miqdoriy oʻzgarishlar dastlab sifatga daxl qilmaydi, lekin maʼlum bir “tugunli nuqta” darajaga yetganda, sifat oʻzgarishi sodir boʻladi. Daraja munosabatida miqdorning oʻzgarishi uning ichki tabiatidan kelib chiqadi” [8; 290-b.] degan taʼlimotida daraja ayni qonuniyatning tayanch nuqtasi ekanligi oydinlashadi hamda ayni izoh orqali daraja miqdor va sifat dialektikasi markazidagi “tarozi” vazifasida turuvchi muhim omil ekanligi haqida tasavvur uygʻonadi:


1-rasm



Oʻzbek substansional tilshunosligida tilshunos olim O. Bozorov tilning turli sath birliklari semantik koʻlami va sifat belgisini aniqlashda lisoniy darajalanishni keng qamrovda oʻrgangan hamda shu yoʻnalishdagi tadqiqotlar uchun metodologik asos yaratgan. Olim “darajalanish (belgining tadrijiy oʻzgarib borishi) hodisasi butun borliqqa xos boʻlib, uning asosida rivojlanish va rang-barang sistemalar shakllanishining zaruriy omillari hisoblanuvchi qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor qonunlari bilan uzviy bogʻlangan miqdor oʻzgarishlarining sifat oʻzgarishlariga aynan borish qonuni” [7; 69-b.] ekanligini ilgari suradi.

Soʻzning semantik qurshovini ifodalovchi sinonimiya, antonimiya, partonimiya va graduonimiya kabi til hodisalarida maʼno farqlanishidagi semik belgilar darajalanish hodisasining tildagi tajallisini koʻrsatadi hamda lisoniy darajalanish “graduonimiya” sifatida leksikologiyada oʻrganiluvchi hodisa sanaladi. Yuqoridagi maʼlumotlar asosida darajalanish “modeli”ni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

2-rasm



Darajalanishda darajalanuvchi birliklar tahlilning asosiy elementlari boʻlib, ular, asosan, bir tur, turkum, guruh va kategoriya doirasida oʻzaro yagona umumiylikka koʻra birlashadi. Ayni birliklar miqdori esa kamida uch tani tashkil etishi lozim. Biroq maʼlum dixotomik ziddiyat oraliqʼida bir-biridan farqlanadi.

Mutafakkir shoir A. Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida keltirilgan mashhur “yigʻlamoq” (ingramoq, singramoq, yigʻlamsinmoq, yigʻlamoq, siqtamoq, oʻkinmoq, boʻzlammoq, inchiqirmoq, hoy-hoy yigʻlamoq) va “kulmoq” (kulmoq, kulimsiramoq, kuluqlamoq, irgajamoq, chaqchaqlamoq) soʻzlari yetakchiligidagi sinonimik qatorda soʻzlarning leksik maʼnosi umumiy harakat-holatni ifodalaydi, ammo oʻzaro kichik semantik farqlanishlar bir tizimdagi xususiy farqlanishni hosil qilib,

lisoniy darajalanishni voqelantiradi. Lisoniy darajalanish ma'nodoshlik hodisasidan tashqari, graduonimiya orqali til tizimida yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo lisoniy darajalanish graduonimiya hodisasidan keng tushunchadir.

Tilshunos B. Mengliyev graduonimiyani shunday izohlaydi: "Graduonimik qatorni ajratishdagi ma'noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma'lum bir belgining ozko'pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud (darcha – eshik – darvoza)" [4; 170-b.]. Ko'rinib turibdiki, graduonimiya hodisasi darajalanuvchi so'zlarning ichki semantik holatini baholovchi lisoniy darajalanishning bir ko'rinishidir.

Demak, lisoniy darajalanishda bir tizimdagi til birliklari o'rtasida umumiy belgi miqdoring ortib-kamayish dinamikasi namoyon bo'ladi, ya'ni daraja tushunchasini ifodalovchi funksional-semantik maydon markazining lisoniy xususiyatlarida turli vositalar [1; 15-b.] ham bo'lib, ular aniq bir belgining darajasini aniqlashga xizmat qiladi: a) leksik vositalar: g'irt, juda, eng, hammadan kabi; b) grammatik vositalar: -roq, -(i)mtir, -(i)sh kabi; c) fonetik vositalar: ko'm-ko'k, qop-qora, chippa-chin kabi; d) matn ichida. Darajalanish keng qamrovli til hodisasi sifatida namoyon bo'lganligiga tayanib, uni nutq hodisasi sifatida ham qo'llash mumkinligini asoslaymiz. Bunda lisoniy va nutqiy darajalanish dialektikasi, ular o'rtasidagi umumiylik va xususiylik quyidagicha namoyon bo'ladi:

1-jadval

Lisoniy darajalanish (mazmuniy farqlanish)	Darajalanish	Nutqiy darajalanish (miqdoriy farqlanish)
Til birliklari (leksema)	Darajalanuvchi birliklar	Nutq birliklari (so'zshakl)
Ko'p – oz	Dixotomik ziddiyat	Faol-nofaol
Ko'p-ozlik	Farqlovchi belgi	Faol-nofaollik
Ko'p – biroz – oz	"Oraliq uchinchi"	Faol – o'rta – nofaol

Lisoniy va nutqiy darajalanish dialektikasi.

Nutqiy darajalanishda darajalanuvchi birliklar ochiq tizimda voqelangan nutq birliklari (tovush, qo'shimcha, so'zshakl, gap) bo'lib, ular orasidagi dixotomik ziddiyat nutqdagi muayyan belgilar qarama-qarshiligi o'rtasidagi tadrijiy bosqichda namoyon bo'ladi hamda ayni ziddiyatlar kesimida "oraliq uchinchi (o'rta)" hodisasi darajalanish zonalarini belgilaydi. Lisoniy darajalanishda belgi sifati tahlil qilinib, farqlovchi-darajalovchi jihatlari ma'lum miqdorni hosil qilib, sifatdan miqdorga o'tish qonuniyatini jonlantirsa, nutqiy darajalanish orqali aniqlangan miqdor ko'rsatkichlarining sifatga ta'sirini ehtimol qilish va aynan nutq statistikasi orqali tilshunoslikda ehtimollar nazariyasining yuzaga chiqishini kuzatish mumkin. Masalan, o'zbek tilida fe'l morfologik shakllarining qo'llanish darajasini aniqlash barcha yoki tanlab olingan morfologik shakllar – fe'lga xos so'zshakllarning nutqdagi faol-nofaollik sifatlarining miqdor o'zgarishlarini tadqiq etishga qaratiladi. Tanlanma matnlar yoki korpus orqali so'zshakllarning chastotasi aniqlanib, o'zbek tilining agglutinativ tabiatidan kelib chiqqan holda ular ustida lingvostatistik metodlarni qo'llab, miqdoriy tahlillar bajariladi hamda "faol – o'rta – nofaol" daraja zonalariga tartiblanadi. Muayyan vaqt ichida o'zbek tilidagi birliklarning sifat o'zgarishlari va miqdoriy holatini baholash uchun nutq statistikasi biz nazarda tutgan nutqiy darajalanish qonuniyatiga asoslanadi. Nutqiy darajalanishi tekshirilgan har qanday birlikning aniq va ishonchli miqdoriy modelini yaratib, zamonaviy texnologiyalar asosida raqamlashtirish, sifat va miqdor jihatdan ularning real manzarasini yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Elmurodova L. O'zbek tilida daraja funksional-semantik maydoni (belgi darajasi mikromaydoni): filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 26 b.
2. Falsafa: qomusiy lug'at / O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati; tuzuvchi va mas'ul muharrir Q. Nazarov. – Toshkent: Sharq, 2004. – 496 b.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 158 b.
4. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – 200 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964 b.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. III tom / tahrir hay'ati: M. Aminov va boshq. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 702 b.
7. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish: filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 1997. – 270 b.
8. Гегель Г. В. Ф. Наука логики. Т. 1: Объективная логика / пер. с нем. Б. Г. Столпнера. – М.: Primedia E-launch LLC, 2017. – 540 с.